

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARGA INVESTITSIYA KIRITISH XUSUSAN, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SO'NGI 30 YILDAGI INVESTITSION SALOHIYATI

Taniberdiyev Muxlisbek Muhammadjon o'g'li
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
E-mail: mukhlisbektaniberdiyev@gmail.com

Anotatsiya:

Maqolada so'ngi 30 yillikda rivojlanayotgan mamlakatlarga investitsiya kiritish bir necha barobarga oshganligi boyis biz ham aynan rivojlanayotgan mamlakatlarga etiborimizni qaratdik, xususan Markaziy Osiyo davlatlariga, O'zbekistondagi investitsion jozibadorlikni va undagi kamchiliklarni ustunlik tomonlari ushbu maqolada ochib berildi.

Annotation:

In the article, due to the fact that investment in developing countries has increased several times over the last 30 years, we also focused on developing countries, in particular on Central Asian countries, the advantages and disadvantages of the investment attractiveness of Uzbekistan were revealed in this article.



Аннотация:

В статье, в связи с тем, что инвестиции в развивающиеся страны за последние 30 лет увеличились в несколько раз, мы также сосредоточили внимание на развивающихся странах, в частности на странах Центральной Азии, были рассмотрены преимущества и недостатки инвестиционной привлекательности Узбекистана. раскрыто в этой статье.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Markaziy Osiyo, rivojlanayotgan mamlakatlar, bozor iqtisodiyoti, o'tish davri iqtisodiyoti, modernizatsiya, investitsiya, investitsion jarayon.

Key words: Uzbekistan, Central Asia, developing countries, market economy, transition economy, modernization, investment, investment process.

Ключевые слова: Узбекистан, Центральная Азия, развивающиеся страны, рыночная экономика, переходная экономика, модернизация, инвестиции, инвестиционный процесс.

Iqtisodiyot olamida tarixan davlatlar kelib chiqishi geografik, demografik va bir qancha turlardan malum bo'ladiki, davlatlar bir necha turlarga bo'linadi. Masalan hozirda rivojlangan, rivojlanayotgan, qashoq mamlakatlarga ajratamiz. Bu tushunchalar asosan XX-asrning 90-yillaridan keyin fanda aniq tavsiflab berilgan bir qancha iqtisodchi olimlar tomonidan. Biz hozir aynan shu jarayonlar ichida rivojlanayotgan mamlakatlarga e'tiborimizni qaratamiz. Bu davlatlar asosan o'tgan asrning 90-yillarida SSSR parchalangan vaqtida o'ndan ortiq Respublika rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga birma-bir kirib keldi. Aynan shu mamalakatlar iqtisodiy tomondan ham mutlaqo yangi modelga o'tishdilar. Ushbu respublikalar dearli hamasi bozor iqtisodiyoti yo'lini tanladilar. Bazi davlatlar tez bozor iqtisodiyotiga o'tgan bo'lishsa, bazi davlatlar bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o'tishni lozim deb topishdi. Shu mamlakatlar ichida biz O'zbekistonni investitsion jozibador bo'lib, bozor iqtisodiyoti tomon ildam harakatlanayotganini tushuntirib bermoqdamiz.

So'ngi 30 yil davomida O'zbekiston iqtisodiyoti bozor munosabatlari nuqtai nazaridan isloh qilishning, boshlangich bosqichlarda, monetaristic prinsiplarga asoslanildi. Davlatning iqtisodiyotdagagi roli qisqarib, mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish sohasida baho va narx masalalari erkinlashtirildi. Davlat mulkclarini xususiy lashtirishning bosqichlari ishlab chiqildi, tashqi iqtisodiy faoliyat liberallashtirildi va natijada ma'lum bozor tuzilmalari vujudga keldi.¹

O'zbekistonning ham ichki ham chet el investorlar uchun jozibdorligini oshirishda ushbu sohada davlat rolini kuchaytirish katta ahamiyatga ega. Investitsion yuksalish birinchi navbatda ushbu sohada davlat boshqaruvi ta'sirchanligini oshirishni talab qiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, bizda investitsion siyosatning mustaqil olimlar tomonidan ishlab chiqilgan va hukumat tomonidan tasdiqlangan yetarli darjadagi xilma-xil hududiy konsepsiylar, mavjud emas. Vaholangki, O'zbekiston ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishning hududiy konsepsiylarini ishlab chiqishi lozim.

Hozirgi vaqtida O'zbekiston iqtisodiyotini boshqarishni to'liq monetaristic yondashish ham yoki ushbu boshqarish to'la-to'kis markazlashgan boshqarish tizimi bo'lishligini ham tanlash to'g'ri emas.² Mamlakatda investitsion rivojlanishning ustuvor masalalari birinchi navbatda va eng avvalo, bozor mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi tufayli bozor boshqaruvi orqali hal qilishi mumkin emas. Investitsiya sohasida davlat rolini oshirish davlat boshqaruvi va bozor orqali boshqaruvning eng maqbul ravishda birga qo'shib olish borilishiga asoslanishi kerak. Bunda davlatning investitsion jarayonlarda ishtirok etishi prinsiplari va chegaralarini aniqlash eng muhim hisoblanadi. Yuqorida qayt etganimizdek hududiy konsepsiylar ishlab chiqilishi kerak, bu nima nazariyamizni yanada



tushunarli qiladigan bo'lsak hududlar kesimida mikroiqtisodiyotni hududlar kesimida o'rganish kerak va har bir hudud nimaga eng qulayligi yoki nima ishlab chiqarilsa ko'proq ham mahaliy aholi uchun, ham investorga ham foyda keltirishini o'rganish lozim. O'zbekiston hududlarida konsepsual rivojlantirish uchungina faqat investitsiyaning jalb qilish yetarli emas, investitsion muhitni hukumat tomonidan ham qo'llab quvvatlash yoki soliq imtiyozlarini berish bizning nazarimizcha shu tog'ri yo'l bo'lar edi. investition faoliyat samaradorlik darajasi ko'p jihatdan yaratilgan investitsion muhit doirasida u yoki bu loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan kapital mablag'larning daromaddorligiga bog'liq. Bozor iqtisodiyoti shartoitida investitsiya resurslar joylashtirish va ulardan samarali foydalanish uchun investitsion muhit umumiy mezon bo'ladi. Qulay investitsiyalardan samarali, manzilli va maqsadli foylanish imkoniyatini yaratadi. Qulay investitsion muhit mamlakatga kapital olib kelishni rag'batlantiradi, investitsion faoligini oshiradi, aks holatlarda qulay investitsion muhit shakllanmasdan investitsion xavf darajasida yuqori bo'ladi, kapitalning tashqariga chiqib ketishi kuchayadi va natijada investitsion faoliyat so'na boshlaydi. Davlatning investitsion siyosatining samaradorligiga qarab investitsion muhitga baho berish mumkin. Qachonki va qayerda investitsion muhit bo'lsa o'sha joyda investitsion faoliyatni samarali tashkil etish, investitsiyalar oqimini tezlashtirish va samaradorligini oshirish imkoniyatlari shu darajada keng bo'ladi. Investitsiyalar iqtisodiyotni yurgazuvchi va uning istiqbolli rivojlanishni ta'minlovchi hal etuvchi asoslardan birdir.³ Xulosa qilib aytish kerak-ki O'zbekistonga o'xshab rivojlanayotgan davlatlarga ham tashqi ham ichki investorlar tomonidan qilingan investitsiyalar o'z-o'zini oqlaydi buning uchun bir qancha asoslar mavjud, birinchidan aholi darajasi yetarli darajada va yangi texnologiyalar endi endi kirib kelmoqda rivojlangan davlatlardan va resurslar bashqa davlatlarga qaraganda nisbatdan arzon va ishchi kuchi ham arzonligi etiborga molik nazarimizda, yanada qanday investitsiyalar qaysi sohalarga va qaysi hududlarga qilinishi uchun davlatimiz aniq jozibdor bo'lган yo'l xaritasi ishlab chiqilsa maqsadga moviq bo'ladi nazarimizda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Investitsiya siyosati. 2022 yil. B.K.To'xliyev kitobi. 30-35bet. (52-53 betlar).
2. bozor, pul va kredit. 2003.12.12/29-32 betlar.
3. Jo'rayev A.S va boshw. Investitsiya loyihalari tahlili:. T.: "sharq" 2002. 18b,
4. Karimov N.G'. Iqtisodiy moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy qilish masalalari.-T.: Fan texnologiya, 2007, 240 b.

